



Jizzax davlat  
Pedagogika  
universiteti

TARIX FAKULTETI



# TARIX va JAMIYAT

## JOURNAL 2023



**№5**

**HISTORY AND SOCIETY**  
**ИСТОРИЯ И ОБЩЕСТВО**  
общественный электронный  
**ЖУРНАЛ**



## TARIX VA JAMIYAT ILMIY ELEKTRON JURNAL

---

2023-yil 5-son Ijtimoiy-gumanitar fanlar  
Tarix, falsafa, huquq, sotsiologiya, o'qitish metodikasi

---

**Bosh muharrir:** Pardayev A.H. JDPU, tarix fakulteti dekani,  
t.f.n., dotsent.

**Bosh muharrir o'rinbosari:** Aqchayev F.Sh. JDPU, t.f.b.f.d. (PhD), dotsent.

**Mas'ul kotib:** Saidov J.O. JDPU, Tarix fakulteti o'qituvchisi

### TAHRIRIYAT A'ZOLARI:

1. Sagdullayev A.S. – tarix fanlari doktori, Akademik
2. Ahmedshina F.A. – tarix fanlari doktori, professor
3. Shodmonova S.B. – tarix fanlari doktori, professor
4. Ochilova B.M. – falsafa fanlari doktori, professor
5. Choriyev S. – falsafa fanlari doktori, professor
6. Tulenova G. J. – falsafa fanlari doktori, professor
7. Pardayev M.H. – tarix fanlari doktori, dotsent
8. G'oyibov B.S. – tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
9. Yarmatov R.B. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
10. Saidqosimov A.I. – f.f.b. fan doktori (DSc), dotsent
11. Amanullayev A. – f.f.b. fan doktori (PhD), dotsent
12. Toshboyev F.E. – tarix fanlari bo'yicha fan doktori (PhD), dotsent
13. Mirkomilov B. – tarix fanlari nomzodi, dotsent
14. Saidov M. – falsafa fanlari nomzodi, dotsent
15. G'ofurov J.I – tarix fanlari bo'yicha fan doktori (PhD), dotsent
16. Hoshimxonov M.X. – f.f.b. fan doktori (DSc), dotsent
17. Valiyev A.X. – katta o'qituvchi
18. Majidov A.S. – katta o'qituvchi

**Dizayner va sahifalovchi:** Axmurodov D.Q

---

## QADIMGI HIND SIVILIZASIYASI XUSUSIDA

Rajabov Abror - Tarix fakulteti 3-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: J. B. Jumayev

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Qadimgi Hind sivilizasiyasining paydo bo'lishi va yuksalishi, shuningdek sharq mamlakatlariga katta ta'siri, jahon sivilizatsiyaviy jarayonida hind madaniyatining obro'si masalalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Jelum, Chinab, Ravi, Bias, Satlej, Panjob, Mohenjo-Daro, "Maxobxorot" "Ramayana", Himolay, Ur.

## О ДРЕВНЕИНДИЙСКОЙ ЦИВИЛИЗАЦИИ

Раджабов Аброр исторический факультет

Студент III степени

Научный руководитель: Джумаев Ж.Б.

**Аннотация:** В данной статье описывается возникновение и подъем древнеиндийской цивилизации, а также ее большое влияние на восточные страны, престиж индийской культуры в мировом цивилизационном процессе.

**Ключевые слова:** Джелам, Чинаб, Рави, Биас, Сатледж, Пенджаб, Мохенджо-Даро, «Махабхорат», «Рамаяна», Гималаи, Ур.

## ON ANCIENT INDIAN CIVILIZATION

Rajabov Abror Faculty of History

III stage student

Scientific leader: J. B. Jumayev

**Abstract:** This article describes the emergence and rise of the ancient Indian civilization, as well as its great influence on the eastern countries, the prestige of Indian culture in the world civilization process.

**Key words:** Jhelam, Chinab, Ravi, Bias, Sutlej, Punjab, Mohenjo-Daro, "Mahabhorat" "Ramayana", Himalaya, Ur.

Odamzod va u yashayotgan jamiyat tarixi juda qadimiy va murakkabdir. U bir necha yuz ming yilni o'z ichiga oladi. Ana shu ko'p ming yillik tarixiy davr ichida insoniyat ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy etnomadaniy rivojlanish darajasiga ko'ra qator tarixiy bosqichlarni bosib o'tgan.<sup>1</sup>

Tarixga faqat fan sifatidagina qarash uni bor bo'yicha, chuqur anglash imkonini bermaydi. Tarix-bu dunyoqarash degani, tarix-bu ma'naviyat, tarix-xalq

---

<sup>1</sup> А. Асқаров. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. Т. : Университет, 2007, 8-б.

xotirasi, tarix millatning, xalqning tarjimai holi, tarix-insoniyat bosib oʻtgan uzoq va mashaqqatli yoʻldir.

Darhaqiqat, Hind sivilizasiyasini qadimiyluk boʻyicha yer yuzida Mesopotamiya va Misr sivilizasiyalari bilan tengdosh boʻlgan uchinchi sivilizasiya deb atash mumkin. Ammo baʼzi tadqiqotchilar bu sivilizasiyaning endi oʻrganilayotganligini nazarda tutib, eng qadimigi boʻlishi ham mumkin, degan taxmini aytmoqdalar.<sup>2</sup>

Hind sivilizasiyasi ham boshqa qadimgi sivilizasiyalar qatori daryolar boʻyida shakllangan va sugʻorma dehqonchilikka asoslangan.

Bundan toʻrt ming yildan oshiqroq vaqt ilgari Hind daryosining beshta yirik irmoqlari: Jalam, Chinab, Ravi, Bias va Satlej suvlari bilan sugʻoriladigan, janubi-gʻarbga qarab Ummon koʻrfazi va Gujoratgacha choʻzilgan Panjob (“Beshdaryo” yoki “Beshsuv”) pasttekisliklarida rivojlangan sivilizasiya vujudga keladi.

Qadimgi Hind sivilizasiyasining qirgʻoq boʻylab tarqalish moyilligiga qarab olimlar unga Mesopotamiyaning taʼsiri kuchli boʻlganligi haqida taxmin qilishadi. Darhaqiqat, Mesopotamiya sivilizasiyasi Qadimgi Hind sivilizasiyasi mavjudligidan dalolat beruvchi dastlabki manbalardan bir necha asr oldin vujudga kelgan.<sup>3</sup> Shuningdek, ularning shahar xayotida ham anchagina umumiylik bor: Shaharliklarning nisbatan toʻkis yashash darajasi, yuqori darajadagi fuqorolik ongining shakllanganligi (bu faqat Mesopotamiyadagi manbalar bilan isbotlangan boʻlib, buni tasdiqlovchi hind manbalari topilmagan) bu umumiylikning eng muhim jihatlaridir.

Olimlarning taxmin qilishlaricha, Mohenjo-Daro kishilari oʻz qiziqishlari va yashash tarziga Mesopotamiyaning Ur shahri aholisidan kam farq qilgan. Ammo shaharni rivojlantirish, ichimlik suvi taʼminoti va oqava suvini chiqarishning puxtaligi Mohenjo-Daro aholisining yuksak turmush madaniyatidan dalolat beradi. Bu ikki sivilizasiyalarning oʻxshash tomonlari umumiy xarakterga ega boʻlib, mayda farqlar bilan izohlanmaydi<sup>1</sup>. Ammo siyosiy sohaga kelsak, bu yerda umumiy jihatlarida ham oʻzgarishlar kuzatilmaydi: Hind sivilizasiyasi uchun davlatning mushtaraklik prinsipi xos boʻlsa, Mesopotamiya bir qator mayda shahar-davlatlardan tashkil topgan. Olimlarning taxmin qilishlaricha, mill. avv. 2400 yil Akkada imperiya tipidagi rejimning vujudga kelishi, oʻsha davrdagi savdo aloqalarining kengligiga qaraganda, oʻzining gullab-yashnagan davrini boshdan kechirayotgan Hind sivilizasiyasining siyosiy anʼanalari taʼsiri ostida yuz bergan

---

<sup>2</sup> <http://elena-elk.narod.ru/Ancient-civilizations/India.html>.

<sup>3</sup> <http://bookz.ru/authors/mortimer-uiler/drevnii-323.html>.

<sup>1</sup> <http://www.historie.ru/civilizacii/drevnava-indiva/228-drevnava-indiva-civilizaciya-drevnev-indii/html>.

bo'lishi mumkin.<sup>2</sup> Qadimgi Hind sivilizasiyasini o'rganishning murakkab tomonlaridan yana biri, yozma ma'lumotlarning deyarli saqlanib qolmaganligidir. Qadimgi Hindiston tarixiga oid ilk tarixiy manbalarning asl nusxalari tabiiy sharoit va yong'inlar tufayli yo'q bo'lib ketgan, ularning ko'pi qayin po'stlog'iga yoki palma daraxti barglariga yozilgan edi.<sup>3</sup> Ilk tarixiy ma'lumotlar sifatida tilga olinuvchi vedalar, "Maxobxorot" va "Ramayana" dostonlari hajm jihatdan ancha katta va mazmundor she'riy asarlar to'plami edi. Vedalar-madhiya, qo'shiqlar, afsungar va diniy duolar to'plami bo'lib, ulardan to'rttasi – "Regveda", "Samaveda", "Yajurveda" va "Atxarveda" saqlanib qolgan. Er.avv 2 ming yilliklar mansub bu to'plamlar keyingi ming yil davomida qayta ishlangan hind xalqining og'izaki ijodi namunasi bo'lgan "Maxobxorot" ("Bxarata avlodlarining buyuk urushi") va "Ramayana" ("Ramaning faoliyati to'g'risidagi qissalar") dostonlari er. avv. I ming yillikning o'rtalarida tarkib topa boshlagan va eramizning dastlabki asrlarida qat'iy shakl olgan. Bu dostonlarda ham urushlar va hukmdorlar tarixi afsonalar hamda ilohiy tasavvurlar bilan uyg'unlikda bayon etilgan. Hindlar o'zlarining iyeroglifli yozuviga ega bo'lganligiga qaramasdan, ularda tarixiy voqealarni qayd etib borish odat bo'lmagan. Masalan, Xitoyda bu ish keng yo'lga qo'yilgan bo'lib, boshqa xalqlar, jumladan, hindlar ham o'z tarixiga oid ma'lumotlarni Xitoy manbalaridan topishyapti.<sup>1</sup> Qadimgi Hind sivilizasiyasi shimolda dunyodagi eng katta tog' tizmasi-Himolay bilan chegaralangan va bu tog' tizmasi sharqdan g'arbga ko'chib, hind gang sub'kontinentini Osiyoning qolgan qismidan ajratib turgan bo'lsa-da, Hindistonga kelayotgan savdogarlar va ko'chmanchilar uchun ham hech qachon o'tib bo'lmay to'siq hisoblanmagan. Shu sababli Hindistonning to'liq izolyasiyasi va Hind sivilizasiyasining tarqalishida Himolayning cheklovchi roli haqida olimlar orasida tarqalgan fikr ancha bo'rttirilgan va to'g'ri emas.<sup>2</sup>

Hind okeani ko'pchilik hollarda juda to'laqonli bo'lishiga qaramasdan, qadimdan g'arb va sharq bilan aloqa qilishning asosiy yo'li bo'lib kelgan. Juda qadim zamonlardayoq Hindiston Qadimgi Sharq va antik dunyoning boshqa mamlakatlari bilan yaqin aloqalar o'rnatgan bo'lib, bu madaniy yutuqlarning almashinuviga olib kelgan.

Mamlakat qadimiy tarixidan bizga ma'lumki, Guptalar Hindistonda 200 yildan ziyodroq hukmronlik qilgan davr Hindiston madaniyatining oltin davri hisoblanadi. Bu bosqich Qadimgi Hindiston sivilizasiyasi tarixni yakunlaydi va undan so'ng g'alayonlar va bosqinlar davri boshlanadi. Xulosa qilib aytganda,

<sup>2</sup> <http://bookz.ru/authors/mortimer-uiler/drevnii-323.html>.

<sup>3</sup> Тарихий манбашунослик муаммолари. Илмий-амалий анжуман материаллари (2013 йил, 25 апрел). ЎЗМУ, 2013, 104-105-бетлар.

<sup>1</sup> <http://elena-eln.narod.ru/Ancient-civilizations/India.html>.

<sup>2</sup> <http://razym.ru/naukaobraz/istoriya/41271-artur-byeshem-civilizaciya-drevnej-indii.html>.

Qadimgi Hind sivilizasiyasi Sharqning ko'p mamlakatlariga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Hindiston tarixini bilmay turib Janubiy va Janubiy-Sharqiy Osiyo xalqlarining tarixi va madaniyatini o'rganishning iloji yo'q. Jahon sivilizasiyaviy jarayonida hind madaniyatining obro'si va ta'siri bugun ham juda kuchli.

### **Foydalanilgan adabiyot va manbalar**

1. А. Аскарлов. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. Т. : Университет, 2007.
2. Тарихий манбашунослик муаммолари. Илмий-амалий анжуман материаллари (2013 йил, 25 апрел). ЎзМУ, 2013.
3. <http://bookz/ru/authors/mortimer-uiler/drevnii-323.html>.
4. <http://www.historie.ru/civilizacii/drevnyaya-indiya/228-drevnyaya-indiya-civilizaciya-drevney-indii/html>.
5. <http://elena-elk.narod.ru/Ancient-civilizations/India.html>.
6. <http://razym.ru/naukaobraz/istoriya/41271-artur-byeshem-civilizaciya-drevnej-indii.html>.